
Konstitutsiya – inson huquqlari va erkinliklari kafolati

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng inson, uning huquq va erkinliklariga bo'lgan qarash tubdan o'zgardi. Inson huquqlari eng oliy qadriyat sifatida qarala boshlanganligi, buning yorqin ifodasi sifatida shun iytish mumkinki, mamlakat mustaqilligidan so'ng qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarida birinchi navbatda inson manfaatlari ko'zlanayotganligi va o'z aksini topayotganligidadir.

Inson, uning huquq va erkinliklari Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlangandir. Jumladan konstitutsiyaning 2-bo'limi "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatimiz mustaqilligining huquqiy zamini, xalq xohish-irodasining oliy ifodasi sifatida maydonga chiqdi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasi oliy darajadagi qonun sifatida davlatimiz qiyofasini, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzumini, boshqaruvning demokratik printsiplarini, jamiyat rivojlanishining strategik yo'nalishlarini, fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlanganligini hamda ma'naviy qadriyatlarimiz asoslarini mustahkamlab beradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi demokratik huquqiy davlat va erkin fuqaroviy jamiyat barpo etishning chinakam huquqiy poydevoridir. Unda huquqiy davlatchilikning asosiy printsiplari va belgilari, xususan, konstitutsiya va qonunning ustunligi, demokratizm, ijtimoiy adolat printsiplari mustahkamlangan.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasi fuqarolarning huquq va erkinliklari borasida Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining barcha sosiy g'oya va qoidalarini o'ziga singdirgan. Asosiy qonunimizning 2-moddasida "Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar" deb ta'kidlangan. Bu fuqarolarning huquq va manfaatlari ustunligini va ular konstitutsiyaviy darajada kafolatlanishini anglatadi.

Asosiy qonunning ichki tuzilishi quyidagichadir: "fuqaro-jamiyat-davlat". Ushbu uchlikning o'zaro aloqalari fuqaro huquq va erkinliklarining ustivorligi va o'zgarimasligi printsipligiga asoslanadi.

Konstitutsiyada har bir fuqaroga tegishli bo'lgan tabiiy va ajralmas huquqlar jumladan, yashash huquqi, jismoniy va ma'naviy daxlsizlik, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi, fikrlar va g'oyalari erkinligiga bo'lgan huquqi, axborot olish huquqi, aybsizlik prezumtsiyasi, sud himoyasidan foydalanish huquqi va boshqalar tan olingan.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, fuqaro va davlat bir-biriga nisbatan mavjud bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdir. Fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir.

A.Ergashev

O'zbekiston tuman Yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

2021-12-06 21:28:17